

**ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI****Badalov Avazbek Rustamjanovich****Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet
tillar instituti o'qituvchisi****+998 972120385; E-mail: avazbek.badalov 280319855@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15478559>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogikada inklyuziv ta'limning rivojlanish tendensiyalari va yo'nalishlari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limning nazariy-metodologik asoslari, xalqaro tajribalar va O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida inklyuziyani rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, inklyuziv ta'lim amaliyotini takomillashtirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, zamonaviy pedagogika, ta'lim tendensiyalari, maxsus ta'lim ehtiyojlari, pedagogik texnologiyalar, inklyuziv madaniyat, universal dizayn.

Аннотация: В данной статье анализируются тенденции и направления развития инклюзивного образования в современной педагогике. Рассматриваются теоретико-методологические основы инклюзивного образования, вопросы развития инклюзии в контексте международного опыта и реформ, проводимых в системе образования Узбекистана. Также освещаются механизмы совершенствования практики инклюзивного образования, развития профессиональных компетенций учителей и внедрения инновационных педагогических технологий.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, современная педагогика, тенденции образования, особые образовательные потребности, педагогические технологии, инклюзивная культура, универсальный дизайн.

Abstract: This article analyzes the trends and directions of inclusive education development in modern pedagogy. The theoretical and methodological foundations of inclusive education, issues of inclusion development in the context of international experience and reforms implemented in the education system of Uzbekistan are examined. The article also highlights mechanisms for improving inclusive education practices, developing teachers' professional competencies, and implementing innovative pedagogical technologies.

Keywords: Inclusive education, modern pedagogy, educational trends, special educational needs, pedagogical technologies, inclusive culture, universal design.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuv dunyo miqyosida ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Inklyuziv ta'lim – bu har qanday cheklovlardan qat'i nazar, barcha o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi to'liq ishtirokini ta'minlaydigan hamda ularning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish yondashuvidir [1]. 2006-yilda qabul qilingan BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi va 2015-yilda tasdiqlangan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" dasturi doirasida 130 dan ortiq mamlakatlar inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmlariga olganlar [2]. O'zbekistonda so'nggi yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator muhim islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish

tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori [3] va 2022-yil 2-dekabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Bu o'zgarishlar maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ularni jamiyatga to'liq integratsiya qilish maqsadlariga xizmat qilmoqda [4]. Biroq, inklyuziv ta'limni samarali joriy etish bir qator nazariy, metodologik va amaliy muammolarni hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy pedagogikada inklyuziv ta'limning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish, xalqaro tajribani tahlil qilish va milliy ta'lim tizimiga moslashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Inklyuziv ta'lim masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xorijiy tadqiqotchilardan M. Ainscow va T. Booth inklyuziv ta'limning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishga katta hissa qo'shganlar. Ularning "Inklyuziyaga indeks" nomli asari dunyoning ko'plab mamlakatlarida inklyuziv amaliyotni baholash va rivojlantirish uchun asosiy qo'llanma sifatida foydalanilmoqda [7]. R. Rose va M. Shevlin inklyuziv maktablarni yaratish va rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqqanlar [18]. Rossiyalik olimlardan S.V. Alekhina, N.N. Malofeev, N.M. Nazarova va E.V. Samsonova inklyuziv ta'limning turli jihatlarini tadqiq etganlar. Alekhina inklyuziv ta'limning psixologik-pedagogik asoslarini [23], Malofeev esa maxsus ta'limdan inklyuziv ta'limga o'tishning tarixiy va nazariy jihatlarini ko'rib chiqqan [24].

O'zbekistonlik olimlardan A.R. Atajanov, Z.K. Qodirova, Z.N. Mamarajabova, S.X. Jalalova, G.A. Shodmonova kabi olimlar inklyuziv ta'limning turli jihatlarini tadqiq etganlar. Mamarajabova inklyuziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarni tayyorlash masalalarini ko'rib chiqqan [12], Qodirova esa inklyuziv ta'limni joriy etish mexanizmlarini tadqiq etgan [16].

Muhokama. Zamonaviy pedagogikada inklyuziv ta'limning konseptual asoslari Zamonaviy pedagogik nazariyada inklyuziv ta'lim tushunchasi faqat maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumta'lim muassasalariga integratsiya qilish bilan cheklanmasdan, balki ta'lim tizimining o'zini transformatsiya qilish va barcha o'quvchilar uchun to'liq ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish jarayoni sifatida tushuniladi [4]. Inklyuziv ta'limning zamonaviy konsepsiyasi quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- Ta'limda barcha uchun teng huquqli imkoniyatlar. Bu tamoyil har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini tan olish va ta'minlashni nazarda tutadi.
- Individual xususiyatlarni tan olish va qo'llab-quvvatlash. Inklyuziv ta'lim har bir o'quvchining individual o'quv ehtiyojlarini hisobga olgan holda differensial yondashuv asosida ta'lim berishni taqozo etadi.
- Universal dizayn tamoyili. Bu tamoyil barcha o'quvchilar uchun qulay va foydalanish mumkin bo'lgan ta'lim muhitini yaratishni nazarda tutadi.
- Ijtimoiy adolat va tenglik tamoyili. Inklyuziv ta'lim ijtimoiy tengsizliklarni bartaraf etish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan.

Inklyuziv madaniyat, siyosat va amaliyot. Bu tamoyil maktab hayotining barcha jihatlarida inklyuziv qadriyatlarni joriy etishni nazarda tutadi. So'nggi yillarda inklyuziv ta'lim nazariyasida bir qator yangi tendensiyalar paydo bo'ldi. Bularga quyidagilar kiradi:

- Interseksional yondashuv: Bu yondashuv turli identifikatsiyalarning (jinsi, etnik kelib chiqishi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, nogironligi va boshqalar) o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda inklyuziv ta'limni tashkil etishni nazarda tutadi
- Transformativ inklyuziya: Bu yondashuv nafaqat o'quvchilarni mavjud ta'lim tizimiga integratsiya qilish, balki ta'lim tizimining o'zini o'zgartirish va transformatsiya qilishni nazarda tutadi [5].
- O'quvchi-markazli yondashuv: Bu yondashuv o'quvchining o'zini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida ko'radi va o'quvchilarning o'z ta'limi haqida qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etish huquqini ta'kidlaydi [20].

Dunyo miqyosida inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator ilg'or tajribalar mavjud. Finlandiya, Kanada, Shvetsiya, Yangi Zelandiya kabi mamlakatlar inklyuziv ta'limni joriy etishda yetakchi o'rinlarni egallaydilar. Bu mamlakatlar tajribasini o'rganish quyidagi zamonaviy tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi:

Universal dizayn tamoyillariga asoslangan ta'lim muhitini yaratish. Bu tendensiya barcha o'quvchilar uchun qulay va foydalanish mumkin bo'lgan ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan. Finlandiyada maktablar loyihalashtirish bosqichidanoq universal dizayn tamoyillariga muvofiq quriladi [6].

Raqamli texnologiyalardan foydalanish. Zamonaviy raqamli texnologiyalar maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Masalan, Shvetsiyada maxsus dasturiy ta'minot va qurilmalar yordamida ko'rish qobiliyati cheklangan, eshitish qobiliyati cheklangan va boshqa maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilar uchun ta'lim materiallarini moslashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda [15].

Ko'p darajali qo'llab-quvvatlash tizimi (Multi-Tiered System of Support, MTSS). Bu tizim har bir o'quvchining ta'lim ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos ravishda yordam ko'rsatish uchun tizimli yondashuvni nazarda tutadi. AQShda keng qo'llaniladigan bu tizim O'quvchilarning ehtiyojlariga ko'ra uch darajada yordam ko'rsatishni nazarda tutadi [19].

Hamkorlikka asoslangan o'qitish modellari. Bu modellar maxsus pedagoglar, umumta'lim o'qituvchilari, psixologlar va boshqa mutaxassislarning hamkorlikda ishlashini nazarda tutadi. Kanadada keng qo'llaniladigan bu yondashuv inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirish imkonini beradi [21].

Inklyuziv madaniyatni shakllantirish. Bu tendensiya inklyuziv qadriyatlarni maktab hayotining barcha jabhalariga singdirish va maktab jamoasining barcha a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat va hamkorlik muhitini yaratishga qaratilgan. Yangi Zelandiyada maktablarda inklyuziv madaniyatni rivojlantirish dasturlari muvaffaqiyat bilan amalga oshirilmoqda [13].

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator muhim islohotlar amalga oshirildi. 2020-2024 yillarga mo'ljallangan Inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi doirasida quyidagi yo'nalishlarda ishlar olib borilmoqda:

Me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-dekabrda "Imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori qabul qilindi.

Inklyuziv ta'lim uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash. Maktablarni zarur jihozlar, maxsus ta'lim vositalari va texnologiyalar bilan ta'minlash bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. Oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim sohasida mutaxassislarni tayyorlash yo'nalishlar ochildi va mavjud yo'nalishlarga inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv kurslari kiritildi. Maxsus ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish. Bu yo'nalishda resurs markazlarini tashkil etish va tajriba almashish uchun platformalar yaratish ishlari olib borilmoqda. O'tkazilgan tadqiqot doirasida O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha qator muammolar va ularni hal qilish yo'llari aniqlandi:

Pedagoglarning inklyuziv ta'lim sohasidagi kompetensiyalarini rivojlantirish. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning 67% inklyuziv ta'lim sohasida qo'shimcha tayyorgarlikka muhtoj ekanliklarini bildirdilar. Bu muammoni hal qilish uchun oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirish va amaliyotda ishlayotgan o'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

Ta'lim muhitini moslashtirishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish. O'rganilgan maktablarning atigi 34% universal dizayn tamoyillariga to'liq muvofiq keladi. Bu yo'nalishda maktablarni qayta jihozlash va zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash ishlari olib borilishi kerak.

Zamonaviy pedagogikada inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun qator innovatsion yondashuvlar qo'llanilmoqda:

Universal dizayn tamoyillariga asoslangan o'qitish. Bu yondashuv har bir o'quvchining individual o'quv ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv materiallarini taqdim etish, o'quvchilar bilan ishlash va ularning bilimlarini baholashning turli usullarini nazarda tutadi [17]. Masalan, o'quv materiallarini taqdim etishning turli formatlaridan (matn, audio, video, grafik) foydalanish, o'quvchilarga o'z bilimlarini namoyon qilishning turli usullarini taklif qilish (yozma ish, og'zaki taqdimot, loyiha, video-taqdimot) va hokazolar.

Raqamli va assistiv texnologiyalar. Zamonaviy raqamli texnologiyalar maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi [9]. Masalan, ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun ekranni o'qish dasturlari, eshitish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun subtitrlash texnologiyalari, jismoniy cheklovlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun alternativ kiritish qurilmalari va hokazolar.

Bu strategiyalar har bir o'quvchining individual o'quv ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv materiallarini, o'qitish usullarini va baholash tizimini moslashtirish imkonini beradi [22]. Masalan, o'quv materiallarini turli murakkablik darajalarida taqdim etish, o'quvchilarning qiziqishlari va o'rganish uslublariga qarab o'quv topshiriqlarini moslashtirish, individual o'quv rejalarini ishlab chiqish va hokazolar.

Ijtimoiy-emotsional o'rganish. Bu yondashuv o'quvchilarning ijtimoiy va emotsional kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, inklyuziv ta'lim muhitida o'zaro hurmat, empatiya va hamkorlik muhitini yaratish imkonini beradi [8]. Masalan, o'quvchilarning o'z hissiyotlarini boshqarish, boshqalarning hissiyotlarini tushunish, muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Jamoaviy o'qitish. Bu model maxsus pedagog va umumta'lim o'qituvchisining bir sinfda hamkorlikda ishlashini nazarda tutadi [14]. Bunday hamkorlik har bir o'quvchining ehtiyojlarini qondirish uchun o'quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Ko'p darajali qo'llab-quvvatlash tizimi. Bu tizim har bir o'quvchining ta'lim ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos ravishda yordam ko'rsatish uchun tizimli yondashuvni nazarda tutadi. Bu tizim doirasida o'quvchilar uch darajada qo'llab-quvvatlanadi: birinchi daraja - barcha o'quvchilar uchun sifatli ta'lim; ikkinchi daraja - qo'shimcha yordamga muhtoj o'quvchilar uchun intensiv yordam; uchinchi daraja - jiddiy qiyinchiliklarga duch kelgan o'quvchilar uchun individual yordam.

Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi va inklyuziv kompetensiyalarga ega bo'lishiga bog'liq. Zamonaviy tadqiqotlar inklyuziv ta'lim muhitida ishlash uchun zarur bo'lgan quyidagi kompetensiyalarni ajratib ko'rsatadi:

Inklyuziv qadriyatlarga ega bo'lish. O'qituvchi har bir bolaning o'z imkoniyatlari darajasida rivojlanish huquqini tan olishi va qo'llab-quvvatlashi zarur.

O'qituvchi turli nogironlik turlari, psixologik va emotsional qiyinchiliklar, o'rganish qiyinchiliklari va boshqa maxsus ta'lim ehtiyojlari to'g'risida bilimga ega bo'lishi kerak.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda o'qituvchilarning inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi choralarni ko'rish tavsiya etiladi: –

- Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv kurslarini joriy etish va takomillashtirish;
- Amaliyotda ishlayotgan o'qituvchilar uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- O'qituvchilar uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha metodik qo'llanmalar va o'quv materiallarini ishlab chiqish;
- Inklyuziv ta'lim sohasida ilg'or tajribalarni o'rganish va almashish uchun platformalar yaratish;

O'qituvchilarning inklyuziv amaliyotdagi yutuqlarini rag'batlantirish tizimini joriy etish.

Xulosa. Zamonaviy pedagogikada inklyuziv ta'limning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

Inklyuziv ta'lim bugungi kunda nafaqat maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumta'lim muassasalariga integratsiya qilish, balki ta'lim tizimining o'zini transformatsiya qilish va barcha o'quvchilar uchun to'liq ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish jarayoni sifatida tushuniladi.

Zamonaviy inklyuziv ta'limning asosiy tendensiyalari qatoriga universal dizayn tamoyillariga asoslangan ta'lim muhitini yaratish, raqamli va assistiv texnologiyalardan foydalanish, differensial o'qitish strategiyalarini qo'llash, ijtimoiy-emotsional o'rganish yondashuvlarini joriy etish, jamoaviy o'qitish modellarini qo'llash va ko'p darajali qo'llab-quvvatlash tizimlarini joriy etish kiradi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish yo'lida muhim qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, bu jarayonni yanada takomillashtirish uchun me'yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash, moddiy-texnik bazani yaratish, pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va inklyuziv madaniyatni shakllantirish bo'yicha kompleks choralar ko'rish zarur. Inklyuziv

ta'limning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi va inklyuziv kompetensiyalarga ega bo'lishiga bog'liq. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash va amaliyotda ishlayotgan o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'limning zamonaviy tendensiyalari va ularning milliy ta'lim tizimiga joriy etilishi barcha o'qituvchilarning ta'lim olish huquqlarini ta'minlash, ular uchun teng imkoniyatlar yaratish va jamiyatning inklyuziv madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi "Imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori.
4. Ainscow, M., & Messiou, K. (2018). Engaging with the views of students to promote inclusion in education. *Journal of Educational Change*, 19(1), 1-17. <https://doi.org/10.1007/s10833-017-9312-1>
5. Artiles, A. J., & Kozleski, E. B. (2016). Inclusive education's promises and trajectories: Critical notes about future research on a venerable idea. *Education Policy Analysis Archives*, 24(43), 1-29. <https://doi.org/10.14507/epaa.24.1919>
6. Н. А Абдухолиқова Жамият ахборотлашувининг ижобий салбий хусусиятлари Conferencea, 125, 2022.
7. Н. А. Абдухоликова Талаба ёшларнинг интернет қарамлигини олдини олишда таълим маърифати. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2022.
8. Björk-Åman, C., Björk-Willén, P., & Norén, E. (2021). The inclusion of multilingual students in Swedish schools: Policy and practice. *International Journal of Inclusive Education*, 25(14), 1594-1608. <https://doi.org/10.1080/13603116.2019.1629122>
9. Booth, T., & Ainscow, M. (2016). *Index for inclusion: A guide to school development led by inclusive values*. Cambridge: Index for Inclusion Network.
10. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D., & Schellinger, K. B. (2011). The impact of enhancing students' social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions. *Child Development*, 82(1), 405-432. <https://doi.org/10.1111/j.1467-8624.2010.01564.x>
11. Edyburn, D. L. (2013). Critical issues in advancing the special education technology evidence base. *Exceptional Children*, 80(1), 7-24. <https://doi.org/10.1177/001440291308000107>

12. Florian, L., & Spratt, J. (2013). Enacting inclusion: A framework for interrogating inclusive practice. *European Journal of Special Needs Education*, 28(2), 119-135. <https://doi.org/10.1080/08856257.2013.778111>
13. Mamarajabova, Z.N. (2020). Maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish mexanizmlari. Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent. – 56 b.
14. McMaster, C. (2015). "Where is ____?": Culture and the process of change in the development of inclusive schools. *International Journal of Whole Schooling*, 11(1), 16-34.
15. Murawski, W. W., & Lochner, W. W. (2018). Beyond co-teaching basics: A data-driven, no-fail model for continuous improvement. Alexandria, VA: ASCD.
16. Nilholm, C., & Göransson, K. (2017). What is meant by inclusion? An analysis of European and North American journal articles with high impact. *European Journal of Special Needs Education*, 32(3), 437-451. <https://doi.org/10.1080/08856257.2017.1295639>
17. Qodirova, Z.K. (2021). Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni ta'minlash mexanizmlari. Monografiya. – Toshkent: "Fan va texnologiya". – 180 b.
18. Rose, D. H., Gravel, J. W., & Gordon, D. T. (2018). Universal design for learning. In K. Kennedy & R. E. Ferdig (Eds.), *Handbook of research on K-12 online and blended learning* (2nd ed.) (pp. 507-530). Pittsburgh, PA: Carnegie Mellon University ETC Press.
19. Rose, R., & Shevlin, M. (2020). Support provision for students with special educational needs in Irish primary schools. *Journal of Research in Special Educational Needs*, 20(1), 51-63. <https://doi.org/10.1111/1471-3802.12465>
20. Sailor, W., McCart, A. B., & Choi, J. H. (2018). Reconceptualizing inclusive education through multi-tiered system of support. *Inclusion*, 6(1), 3-18. <https://doi.org/10.1352/2326-6988-6.1.3>
21. Shogren, K. A., McCart, A. B., Lyon, K. J., & Sailor, W. S. (2018). All means all: Building knowledge for inclusive schoolwide transformation. *Research and Practice for Persons with Severe Disabilities*, 40(3), 173-191. <https://doi.org/10.1177/1540796915586191>
22. Specht, J., & Young, G. (2019). Professional learning for teachers and educational assistants working with high-needs student populations. In B. Smith & A. Hargreaves (Eds.), *Handbook of educational ideas and practices* (pp. 128-139). London: Routledge.
23. Tomlinson, C. A., & Imbeau, M. B. (2010). Leading and managing a differentiated classroom. Alexandria, VA: ASCD.
24. Алехина С.В. (2016). Инклюзивное образование: от политики к практике // Психологическая наука и образование. – Том 21. – № 1. – С. 136-145. <https://doi.org/10.17759/pse.2016210112>
25. Малофеев Н.Н. (2018). От равных прав к равным возможностям, от специальной школы к инклюзии // Известия РГПУ им. А.И. Герцена. – № 190. – С. 8-15.